Tadqiqot doirasida talaba-yoshlarning jismoniy tayyorgarligini baholash maqsadida keyingi o'tkazilgan 1000 metrga yugurish mashqi natijalari tadqiqot avvalida an'anaviy ta'lim guruhi ishtirokchilarining o'rtacha natijasi  $268,16 \pm 52,91$  soniyani tashkil etgan bo'lib, o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti ( $V\%$ )  $19,7\%$  qiymatga ega bo'lgan. Innovatsion mashg'ulot guruhi ishtirokchilarining o'rtacha natijasi esa  $276,19 \pm 54,62$  soniya bo'lib,  $V\%$  aniqligi ham  $19,7\%$  ni tashkil etgan. Bu bosqichda Student testi ( $t$ ) natijasi  $1,08$  ga teng bo'lib,  $p > 0,05$  ekanligi guruhlar o'rtasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot yakunida esa jamoalar o'rtasida sezilarli o'zgarishlar va farqlar aniqlangan. Oddiy mashg'ulot guruhi ishtirokchilarining o'rtacha ko'rsatkichi  $264,09 \pm 41,08$  soniyaga o'zgargan, bu esa  $V\%$  ko'rsatkichining  $15,5\%$  gacha pasayganligini anglatadi. Tajriba guruhi ishtirokchilarining natijalari esa jismoniy progresslashganligini ko'rsatib, o'rtacha  $241,65 \pm 27,81$  soniyani tashkil etgan,  $V\%$  ko'rsatkichi esa  $11,5\%$  gacha kamaygan.

1-jadval: Talabalarining tajriba oxiri davomida jismoniy tayyorgarligi dinamikasi o'g'il bolalar ( $n=240$ )

№	Nazorat testlari	Davri	NG ( $n=120$ ) ( $x \pm \sigma$ )	V%	TG ( $n=120$ ) ( $x \pm \sigma$ )	V%	t	p
1	100 m yugurish, s	T.B.	$15,47 \pm 1,95$	12,6	$15,78 \pm 1,97$	12,4	1,14	$>0,05$
		T.O.	$14,97 \pm 1,72$	11,4	$14,38 \pm 1,23$	8,5	2,85	$<0,01$
2	1000 m yugurish, s	T.B.	$268,16 \pm 52,91$	19,7	$276,19 \pm 54,62$	19,7	1,08	$>0,05$
		T.O.	$264,09 \pm 41,08$	15,5	$241,65 \pm 27,81$	11,5	4,63	$<0,001$
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash, sm	T.B.	$159,81 \pm 27,03$	16,9	$154,38 \pm 28,65$	18,5	1,41	$>0,05$
		T.O.	$164,23 \pm 25,93$	15,7	$171,01 \pm 17,96$	10,5	2,20	$<0,05$
4	Gavdani ko'tarib bukish (1 min.)	T.B.	$29,05 \pm 5,93$	20,4	$27,59 \pm 5,76$	20,8	1,81	$>0,05$
		T.O.	$30,19 \pm 5,71$	18,9	$32,03 \pm 3,37$	10,5	2,84	$<0,01$


5	3x10 m maksimal yugurish, s	T.B.	8,12±1,27	15,6	8,30±1,24	14,9	1,03	>0,05
		T.O.	7,89±1,14	14,4	7,58±0,83	10,9	2,25	<0,05
6	Tik turgan holda oldinga egilish, sm	T.B.	7,62±1,22	16,1	7,42±1,22	16,4	1,18	>0,05
		T.O.	8,01±1,16	14,4	8,40±0,91	10,8	2,71	<0,01
7	Turnikda tortilish, marta	T.B.	6,68±1,15	17,2	6,45±1,23	19,1	1,40	>0,05
		T.O.	7,25±1,02	14,1	7,58±0,81	10,6	2,59	<0,05

Izoh: m-metr, s-soniya, min-minut, sm-santimetr.

Eng muhimi, tadqiqot oxirida guruhlar o'rtasidagi matematik farq juda muhim bo'lib ( $t=4,63; p<0,001$ ), bu tajriba guruhida qo'llanilgan usullar va dasturlarning nazorat guruhiga nisbatan 1000 metrga yugurishdagi chidamlilikni oshirishda yuqori samaradorlikka erishganini yaqqol isboti.

Navoiy shahridagi talabalarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasini o'rganishga qaratilgan tadqiqotda turgan joydan uzunlikka sakrash testi muhim o'rin tutdi. Izlanishning boshlang'ich bosqichida standart guruhi  $159.81\pm 27.03$  sm (V% 16.9%) natija qayd etgan bo'lsa, sinov guruhi  $154.38\pm 28.65$  sm (V% 18.5%) ko'rsatkichni ifoda etdi. Dastlabki bosqichda guruhlar o'rtasida statistik ahamiyatga molik tafovut kuzatilmadi ( $t=1.41, p>0.05$ ), bu ularning boshlang'ich tayyorgarlik darajasi yaqin ekanligini tasdiqladi.

Izlanishning yakunida esa ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilandi. Monitoring guruhi o'z ko'rsatkichini  $164.23\pm 25.93$  sm (V% 15.7%) gacha yaxshilagan bo'lsa, tajriba guruhining qiymati  $171.01\pm 17.96$  sm (V% 10.5%) gacha oshdi. Bu bosqichda tajriba guruhining sakrash natijasi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli darajada baland bo'ldi ( $t=2.20, p<0.05$ ). Mazkur qiyosiy tahlil shuni aniqladiki, tajriba guruhiga qo'llanilgan maxsus jismoniy yuklama dasturi ishtirokchilarning sakrash qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilashga yordam bergan.



1-rasm: Talabalarning tajriba oxiri davomida jismoniy tayyorgarligi dinamikasi o'g'il bolalar

O'znavbatida tadqiqot davrida gavdani ko'tarib bukish bir daqiqa davomida avval nazorat guruhi a'zolari o'rtacha  $29.05\pm 5.93$  marta (V%20.4%) gavdani ko'tarib bukkan bo'lsada, tajriba guruhida bu natija  $27.59\pm 5.76$  marta (V%20.8%)ni ko'rsatdi. Dastlabki bosqichda guruhlar o'rtasida statistik ahamiyatga ega tafovut aniqlanmadi ( $t=1.81, p>0.05$ ), bu ularning boshlang'ich tayyorgarlik darajasi bir-biriga o'xshash ekanligini ko'rsatadi.

Tajriba yakuniga kelib ko'rsatkichlar ahamiyatli darajada o'zgardi. Monitoring guruhi o'rtacha  $30.19\pm 5.71$  marta (V%18.9%) natija ko'rsatgan bo'lsa, eksperimental guruh ishtirokchilari  $32.03\pm 3.37$  marta (V%10.5%) gavdani ko'tarib bukishga muvaffaq bo'ldilar. Bu yakuniy qiymatga ko'ra, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada rivojlanganligi qayd etildi ( $t=2.84, p<0.01$ ). Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhiga qo'llanilgan maxsus jismoniy mashqlar dasturi talabalarning qorin mushaklari kuchini va chidamliligini oshirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan.

Talaba-yoshlarning jismoniy tayyorgarlik holatini o'rganishga bag'ishlangan tajriba-sinov ishlarida 3x10 metrga maksimal yugurish mashqi natijalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Nazorat ilk davrida nazorat guruhi a'zolari o'rtacha  $8.12\pm 1.27$  soniya (V%15.6%) natijaga erishgan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkich  $8.30\pm 1.24$



soniya (V%14.9%)ni ifoda etdi. Dastlabki etapda guruhlar o'rtasida matematik ahamiyatga ega farq aniqlanmadi ( $t=1.03$ ,  $p>0.05$ ), bu ularning boshlang'ich chaqqonlik tayyorgarlik darajalari bir-biriga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

Tajriba oxirida nazorat guruhi o'rtacha  $7.89\pm 1.14$  soniya (V%14.4%) qiymatga ega bo'lsa, tajriba guruhi a'zolari esa  $7.58\pm 0.83$  soniya (V%10.9%) ko'rsatkichni qayd etdilar. Bu yakuniy hisoblarga ko'ra, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli darajada yaxshilanganligi qayd etildi ( $t=2.25$ ,  $p<0.05$ ).

Jismoniy tayyorgarlik darajasi dinamikasini o'rganishga qaratilgan tadqiqotda ishtirokchilarning tik turgan holda oldinga egilish testi natijalari ilmiy jihatdan tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiqotning ilk bosqichida nazorat guruhi a'zolari o'rtacha  $7.62\pm 1.22$  sm (V%16.1%) natija qayd etgan bo'lsa, tajriba guruhida bu natija  $7.42\pm 1.22$  sm (V%16.4%) bo'lgan. Dastlabki bosqichda guruhlar o'rtasida statistik ahamiyatga ega farq yo'q ( $t=1.18$ ,  $p>0.05$ ), bu ularning boshlang'ich egiluvchanlik darajasi natijalari yaqin ekanligini ko'rsatadi.

Tajriba yakunida esa ekperiment guruhi o'rtacha  $8.01\pm 1.16$  sm (V%14.4%) natija ko'rsatgan bo'lsa, tajriba guruhi a'zolari mos ravishda  $8.40\pm 0.91$  sm (V%10.8%) natijani qayd etdilar. Bu yakuniy natijalarga ko'ra, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada rivojlanganligi qayd etildi ( $t=2.71$ ,  $p<0.01$ ).

Tadqiqot davomida talabalarning jismoniy tayyorgarlik holatini o'rganish maqsadida turnikda tortilish nazorat testi olindi va natijalar ilmiy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot avvalida nazorat guruhi a'zolari o'rtacha  $6.68\pm 1.15$  marta (V%17.2%) natija ko'rsatgan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkich  $6.45\pm 1.23$  marta (V%19.1%)ni tashkil etdi. Dastlabki bosqichda guruhlar o'rtasida statistik ahamiyatga ega farq aniqlanmadi ( $t=1.40$ ,  $p>0.05$ ), bu ularning boshlang'ich kuch tayyorgarlik darajasi bir-biriga yaqin ekanligini ifodalaydi.

Tajriba oxirida nazorat guruhi o'rtacha qiymat  $7.25\pm 1.02$  marta (V%14.1%) natijani tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhi a'zolari esa mos ravishda  $7.58\pm 0.81$  marta (V%10.6%) natijani qayd etdilar. Bu yakuniy natijalarga ko'ra, tajriba guruhining natijalari nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada jismoniy progresslashgan ( $t=2.59$ ,  $p<0.05$ ). Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhiga qo'llanilgan maxsus jismoniy mashqlar dasturi talabalarning qo'l va elka kamari mushaklari kuchini rivojlantirish uchun yuqori samaradorlikka ega bo'lgan.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarga qo'yilgan talablarni inobatga oladigan bo'lsak, ta'lim-tarbiya olish orqali mutaxassis bo'lib etishishi juda muhim hisoblanadi. Zero, o'qituvchi kelajak avlodga ta'lim-tarbiya berishda har tomonlama ilg'or va na'muna bo'lishi tegishli me'yoriy hujjatlarda ham belgilab qo'yilgan. Shu nuqtai-nazardan, pedagogika ta'lim yo'nalishidagi talabalarda sog'lom turmush tarzinining shakllanganligi, ularda jismoniy madaniyatning takomillashgan bo'lishi o'ta zaruriy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun ham talabala-yoshlarning jismoniy madaniyati va uni rivojlantirish, takomillashtirishni ilmiy tadqiq etish dolzarb masaladir.

Yosh avlodni sog'lom va bilimli etib tarbiyalash millatning ertangi kunini yaratish sari qo'yilgan mustahkam poydevordir. Mana shunday ezgu maqsad yo'lida Navoiy viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 214 nafar qiz bolalarning tajriba yakunidagi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi tahlil qilindi. Ushbu tahlil Navoiy viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan nazorat va tajriba guruhleri (har birida ixtiyoriy 107 nafardan talaba) o'rtasidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Test natijalari tajriba boshlanishi va yakunidagi ko'rsatkichlarni qiyoslash orqali qiz talabalarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan metodologiyaning samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Tajriba davomida Navoiy viloyatida tahsil olayotgan oliy ta'lim talabalarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasini o'rganish maqsadida o'tkazilgan  $3\times 10$  metr maksimal yugurish testi natijalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiqotning ilk bosqichida nazorat guruhi ishtirokchilarining o'rtacha natijasi  $9,56\pm 1,90$  soniyani tashkil etgan bo'lib, o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti (V%) 19,8% ni tashkil qildi. Tajriba guruhi (TG, n=107) ishtirokchilarining o'rtacha natijasi esa  $9,91\pm 1,95$  soniya bo'lib, V% ko'rsatkichi 19,6% ga teng edi. Ushbu davrda Student testi (t) natijasi 1,33 ga teng bo'lib,  $p>0,05$  ekanligi guruhlar o'rtasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatadi. Bu, tadqiqot boshida ikkala guruhning tezlik-kuch qobiliyati bo'yicha tayyorgarlik darajasi deyarli bir xil bo'lganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot oxirida nazorat guruhi a'zolarining  $3\times 10$  metrga yugurish bo'yicha o'rtacha qiymati  $9,41\pm 1,67$  soniyaga o'zgaragan, V% ko'rsatkichi esa 17,7% gacha kamaygan. Biroq, tajriba guruhi ishtirokchilarining natijalari sezilarli darajada yaxshilanishni ko'rsatib, mos ravishda  $8,92\pm 1,05$  soniyani tashkil etdi, V% ko'rsatkichi 11,7% gacha pasaygan. Bu shuni anglatadiki, tajriba guruhida nafaqat natijalar sezilarli darajada yaxshilangan, balki natijalarning tarqalishi ham kamaygan, eng muhimi, tadqiqot yakunida jamoalar o'rtasidagi statistik farq muhim darajada bo'lib ( $t=2,56$ ;  $p<0,05$ ), bu tajriba guruhida qo'llanilgan metodikalar va jismoniy mashg'ulot dasturlari nazorat guruhiga nisbatan qiz bolalarning tezlik-kuch qobiliyatini oshirishda samaraliroq bo'lganini yaqqol tasdiqlaydi. Ushbu tahlil Navoiy viloyati oliy ta'lim muassasalarida qiz talabalarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarning ijobiy samara berganligini ko'rsatadi.

Talabalarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi doirasida turgan joydan uzunlikka sakrash testi natijalarining ilmiy-qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba davomida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Tadqiqotning boshlang'ich bosqichida monitoring guruhi va eksperiment guruhi o'rtasida statistik jihatdan muhim farq aniqlanmadi ( $t=1,35; p>0,05$ ). Bu holat guruhlarning boshlang'ich portlovchi kuch tayyorgarligi darajasi yaqin bo'lganligini ko'rsatadi. Aniqlangan o'rtacha natijalar nazorat guruhi uchun  $155,25 \pm 23,02$  sm ( $V\%=14,8\%$ ) ham tajriba guruhi uchun  $151,04 \pm 22,54$  sm ( $V\%=14,9\%$ ) ni tashkil etdi.

Tajriba yakunida vaziyat sezilarli darajada o'zgardi. Nazorat guruhining o'rtacha natijasi  $159,89 \pm 20,32$  sm gacha yaxshilangan bo'lsa ( $V\%=12,7\%$ ), tajriba guruhida natijalar yanada sezilarli darajada o'sib,  $167,78 \pm 16,81$  sm ni tashkil etdi ( $V\%=10,1\%$ ). Tajriba guruhidagi o'zgaruvchanlik koeffitsiyentining pasayishi nafaqat natijalarning yaxshilanganligini, balki talabalar o'rtasidagi individual farqlarning kamayganligini va tayyorgarlik darajasining bir xillashganligini ham ko'rsatadi. Eng muhimi, tadqiqot oxirida guruhlar o'rtasida statistik jihatdan muhim farq aniqlandi ( $t=3,09; p<0,01$ ). Bu, tajriba guruhida qo'llanilgan maxsus jismoniy mashg'ulot dasturlarining qiz talabalarning portlovchi kuch sifatlarini yaxshilashga nazorat guruhiga nisbatan foydaliroq bo'lganini yaqqol tasdiqlaydi (2-jadvalga qarang).

Navoiy viloyatining oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan qiz talabalarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi doirasida gavdani ko'tarib bukish (1 daqiqa ichida) testi natijalarining tahlili shuni ifodaladiki, tajriba davomida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan.

Tadqiqotning ilk bosqichida an'anaviy ta'lim guruhi va innovatsion mashg'ulot guruhi o'rtasida statistik jihatdan muhim farq aniqlanmadi ( $t=0,91; p>0,05$ ). Aniqlangan o'rtacha qiymatlar nazorat guruhi uchun  $28,59 \pm 4,81$  marta ( $V\%=16,8\%$ ) va tajriba guruhi uchun  $28,01 \pm 4,50$  marta ( $V\%=16,1\%$ ) ni tashkil etdi.

**2-jadval: Talabalarning tajriba oxiri davomida jismoniy tayyorgarligi dinamikasi qiz bolalar (n=214)**

No	Nazorat testlari	Davri	NG (n=107) ( $x \pm \sigma$ )	V%	TG (n=107) ( $x \pm \sigma$ )	V%	t	p
1	3x10 m maksimal yugurish, s	T.B.	9,56 $\pm$ 1,90	19,8	9,91 $\pm$ 1,95	19,6	1,33	>0,05
		T.O.	9,41 $\pm$ 1,67	17,7	8,92 $\pm$ 1,05	11,7	2,56	<0,05
2	Turgan joydan uzunlikka sakrash, sm	T.B.	155,25 $\pm$ 23,02	14,8	151,04 $\pm$ 22,54	14,9	1,35	>0,05
		T.O.	159,89 $\pm$ 20,32	12,7	167,78 $\pm$ 16,81	10,1	3,09	<0,01
3	Gavdani ko'tarib bukish (1 min.)	T.B.	28,59 $\pm$ 4,81	16,8	28,01 $\pm$ 4,50	16,1	0,91	>0,05
		T.O.	30,01 $\pm$ 3,93	13,1	31,24 $\pm$ 3,05	9,7	2,55	<0,05
4	Tik turgan holda oldinga egilish, sm	T.B.	7,41 $\pm$ 1,31	17,6	7,25 $\pm$ 1,27	17,5	0,90	>0,05
		T.O.	8,04 $\pm$ 1,22	15,1	8,61 $\pm$ 1,07	12,4	3,63	<0,01
5	100 m yugurish, s	T.B.	16,27 $\pm$ 2,08	12,7	16,60 $\pm$ 2,14	12,8	1,14	>0,05
		T.O.	15,90 $\pm$ 1,97	12,3	15,33 $\pm$ 1,52	9,9	2,37	<0,05
6	1000 m yugurish, s,	T.B.	281,62 $\pm$ 51,22	18,1	295,50 $\pm$ 53,02	17,9	1,94	>0,05
		T.O.	269,84 $\pm$ 49,60	18,3	246,18 $\pm$ 24,95	10,1	4,40	<0,001
7	Past turnikda tortilish, marta	T.B.	4,98 $\pm$ 1,01	20,2	4,82 $\pm$ 1,03	21,3	1,14	>0,05
		T.O.	6,35 $\pm$ 0,96	15,1	6,70 $\pm$ 0,61	9,1	3,18	<0,01

Izoh: m-metr, s-soniya, min-minut, sm-santimetr.

Yakuniy bosqichida nazorat guruhining o'rtacha natijasi  $30,01 \pm 3,93$  martagacha yaxshilangan bo'lsa ( $V\%=13,1\%$ ), tajriba guruhida natijalar yanada sezilarli darajada o'zgarib,  $31,24 \pm 3,05$  martani tashkil etdi ( $V\%=9,7\%$ ). Maxsus mashg'ulot guruhidagi o'zgaruvchanlik koeffitsiyentining pasayishi nafaqat natijalarning yaxshilanganligini, balki talabalar o'rtasidagi individual farqlarning kamayganligini va tayyorgarlik darajasining bir xillashganligini ham ko'rsatadi. Eng muhimi, tadqiqot oxirida guruhlar o'rtasida statistik jihatdan muhim farq aniqlandi ( $t=2,55; p<0,05$ ). Bu, tajriba guruhida qo'llanilgan maxsus jismoniy mashg'ulot dasturlarining qiz talabalarning qorin mushaklari kuchi va chidamliligini rivojlantirishda nazorat guruhiga nisbatan foydaliroq bo'lganidan dalolat.

Oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan qiz talabalarning jismoniy tayyorgarlik holatini o'rganishga bag'ishlangan ushbu tadqiqotda egiluvchanlikni baholovchi tik turgan holda oldinga egilish testi natijalari ilmiy jihatdan tahlil etildi. Dastlabki baholash nazorat guruhi a'zolari o'rtacha  $7,41 \pm 1,31$  sm ( $V\%17,6\%$ ) natija qayd



etgan bo'lsa, tajriba guruhida bu qiymat  $7.25 \pm 1.27$  sm (V%17.5%)ni ifodaladi. Mazkur dastlabki baholashda guruhlar o'rtasida matematik jihatdan sezilarli o'zgarish aniqlanmadi ( $t=0.90$ ,  $p>0.05$ ), bu ularning boshlang'ich moslashuvchanlik holati yaqin ekanligini anglatadi.

Ammo, tadqiqot yakunida natijalarda sezilarli o'zgarishlar aniqlandi. Nazorat guruhi o'rtacha  $8.04 \pm 1.22$  sm (V%15.1%) natijaga ega bo'lsa, tajriba guruhi a'zolari esa  $8.61 \pm 1.07$  sm (V%12.4%) natijani qayd etdilar. Bu yakuniy ko'rsatkichlarga ko'ra, tajriba guruhining natijasi qiyoslash guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yaxshilanganligi qayd etildi ( $t=3.63$ ,  $p<0.01$ ). Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, eksperiment guruhiga qo'llanilgan maxsus jismoniy mashqlar dasturi qiz talabalarning egiluvchanlik qobiliyatini yaxshilashga erishgan va ularning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Ilmiy-tadqiqot davrida talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini o'rganishga bag'ishlangan ushbu tadqiqotda tezkorlik sifatini baholovchi 100 metrga yugurish testi natijalari ilmiy jihatdan tahlil etildi. Ilk bosqichda nazorat guruhi a'zolari o'rtacha  $16.27 \pm 2.08$  soniya (V%12.7%) natija qayd etgan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkich  $16.60 \pm 2.14$  soniya (V%12.8%)ni tashkil etdi. Ushbu boshlang'ich baholashda guruhlar o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq aniqlanmadi ( $t=1.14$ ,  $p>0.05$ ).

Tadqiqot yakuniy bosqichida ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlar aniqlandi. Nazorat guruhi o'z ko'rsatkichini  $15.90 \pm 1.97$  soniyagacha (V%12.3%) yaxshilagan bo'lsa, tajriba guruhi a'zolari  $15.33 \pm 1.52$  soniya (V%9.9%) natijani qayd etdilar. Bu yakuniy ko'rsatkichlarga ko'ra, tajriba guruhining natijasi qiyoslash guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yaxshilanganligi qayd etildi ( $t=2.37$ ,  $p<0.05$ ). Ushbu qiyosiy ifodalash shuni ko'rsatadiki, sinov guruhiga qo'llanilgan maxsus jismoniy mashqlar dasturi qiz talabalarning tezlik qobiliyatini oshirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan va ularning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Talaba-yoshlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini o'rganishga bag'ishlangan ushbu tadqiqotda chidamlilikni baholovchi 1000 metrga yugurish testi qayta olindi va natijalari ilmiy jihatdan tahlil etildi. Dastlabki bosqichda nazorat guruhi a'zolari o'rtacha  $281.62 \pm 51.22$  soniya (V%18.1%) natija qayd etgan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkich  $295.50 \pm 53.02$  soniya (V%17.9%)ni tashkil etdi. Ushbu boshlang'ich baholashda guruhlar o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq aniqlanmadi ( $t=1.94$ ,  $p>0.05$ ), bu ularning boshlang'ich aerobik chidamlilik darajasi bir-biriga yaqin ekanligini anglatadi.

Tadqiqot yakunida nazorat guruhi o'z ko'rsatkichini  $269.84 \pm 49.60$  soniyagacha (V%18.3%) yaxshilagan bo'lsa, tajriba guruhi a'zolari  $246.18 \pm 24.95$  soniya (V%10.1%) natijani qayd etdilar. Bu yakuniy ko'rsatkichlarga ko'ra, tajriba guruhining natijasi qiyoslash guruhiga nisbatan statistik jihatdan o'ta sezilarli darajada yaxshilanganligi qayd etildi ( $t=4.40$ ,  $p<0.001$ ).

Navoiy viloyati oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan qiz talabalarning jismoniy tayyorgarlik holatini o'rganishga bag'ishlangan ushbu tadqiqotda qo'l va elka mushaklari kuchini baholovchi past turnikda tortilish testi natijalari ilmiy jihatdan tahlil etildi. Ilk bosqichda monitoring guruhi a'zolari o'rtacha  $4.98 \pm 1.01$  marta (V%20.2%) qiymatni qayd etgan bo'lsa, eksperiment guruhida bu ko'rsatkich  $4.82 \pm 1.03$  marta (V%21.3%)ni tashkil qildi. Ushbu boshlang'ich baholashda guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarish aniqlanmadi ( $t=1.14$ ,  $p>0.05$ ), bu ularning boshlang'ich kuch jismoniy tayyorgarligi holati bir-biriga yaqin ekanligini anglatadi.


Biroq, tadqiqot oxirida kelib, ko'rsatkichlarda o'zgarishlar kuzatildi. An'anaviy ta'lim guruhi o'rtacha  $6.35 \pm 0.96$  marta (V%15.1%) natija ko'rsatgan bo'lsa, rivojlantiruvchi dastur guruhi a'zolari esa  $6.70 \pm 0.61$  marta (V%9.1%) natijani qayd etdilar. Bu yakuniy ko'rsatkichlarga ko'ra, tajriba guruhining natijasi qiyoslash guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yaxshilanganligi qayd etildi ( $t=3.18$ ,  $p<0.01$ ). Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, sinov guruhiga qo'llanilgan maxsus jismoniy mashqlar dasturi qiz talabalarning qo'l va elka mushaklari kuchini oshirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan va ularning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Navoiy viloyati oliy ta'lim muassasalarining talaba qizlari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot, jismoniy tayyorgarlikning turli yo'nalishlarida tajriba guruhining sezilarli progressga erishganini ko'rsatdi. Jumladan, tik turgan holda oldinga egilish, 100 metrga yugurish, 1000 metrga yugurish va past turnikda tortilish testlarida nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida statistik jihatdan ahamiyatli yaxshilanishlar qayd etildi ( $p<0.05$  va  $p<0.01$ , ayrim hollarda  $p<0.001$ ). Bu esa tajriba guruhiga qo'llanilgan maxsus jismoniy mashqlar dasturlarining talaba qizlarning egiluvchanlik, tezlik, chidamlilik hamda qo'l va elka mushaklari kuchini oshirishdagi yuqori samaradorligidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari jismoniy tarbiyaning maqsadli va ilmiy asoslangan dasturlari talabalarning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'aybullayev N. "Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi". – T.: O'zbekiston, 2020.
2. Karimov F. va boshq. "Sport fiziologiyasi asoslari". – T.: 2022.
3. Hasanova M. Sog'lom turmush tarzi asoslari. – T.: 2021.
4. Sharipov T. Talabalarda jismoniy faollikni oshirishning samarali usullari. – "Sport va ilm", 2022.
5. Zakirov A. "Yoshlarning jismoniy faolligini shakllantirish metodikasi". – Samarqand, 2019.
6. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. – WHO, 2020.
7. Faigenbaum A.D., Myer G.D. Resistance training in youth. – Pediatrics, 2010.
8. Malina R.M. Physical activity and training in youth. – Eur J Appl Physiol, 2006.
9. Платонов В. Теория спортивной тренировки. – Киев: Олимпийская литература, 2015.
10. D. Jones. "Youth Physical Development: Theory and Practice". – Routledge, 2018.
11. Mahmudova D. "Jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish". – Farg'ona, 2021.
12. Haydarov S. "Jismoniy sifatlarni baholash metodikasi". – T.: 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.